

**SHARHLOVCHILAR NUTQINING O'ZIGA XOSLIGI**

*Xongeldiyeva Sevara Shuxrat Qizi*

*O'zbek Filologiyasi Fakulteti*

*Filologiya Va Tillarni O'qitish: O'zbek Tili Ta'limi Yo'nalishi*

*2-Bosqich Talabasi*

*Ilmiy Rahbar: Umurqulov Bekpo'lat*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada sohalarda nutq madaniyatining muhimligi, sharhlovchining o'ziga xos nutqi, sport musobaqalarini sharhlashda ayniqsa, futbolda nutqning muhim vosita ekanligi borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *til, sohalarda nutq madaniyati, sharhlovchilar nutqi, sport musobaqalari turlari va unda sharhlovchilarning o'ziga xos nutqi.*

Sport sharhlovchisi bu – real vaqtda o'yin, turnir va har qanday musobaqaning voqealarini yorituvchi jurnalist. Eshittirishlar radio, onlayn gazeta yoki televizorda efirga uzatilishi mumkin. Har bir ish formatining o'ziga xos xususiyatlari bor[1]. Masalan, radioga sport sharhlovchisi, tomoshabin voqea tasvirini ko'radigan translatsiyaga qaraganda ko'proq va batafsilroq gapirishga majbur. Bu esa o'z navbatida, sharhlovchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratishini talab qiladi. Onlayn matnli translyatsiyani yozadigan muxbir tinish belgilaridan foydalanishi va ijtimoiy tarmoqlardagi yozuvlar, muxlislarning yangi xabarlar va turli xil Internet kontentlarni jalb qilishi mumkin. Sport jurnalisti ko'pincha tartibsiz jadval asosida ish olib boradi va asosiy voqealarining katta qismi dam olish kunlari bo'lib o'tadi, shuning uchun aksariyat dam olish kunlarini o'z oila a'zolari bilan o'tkazmaydi. Ish kuni boshlanishi va oxiri – barchasi intervyu tugashi yoki jamoalarning kelishi va ketishi bilan bog'liq. Ammo ko'plab sport jurnalistlari ushbu jadvalda kasbning afzalliklarini ko'rishadi. Ish haftasi o'rtasida paydo bo'lgan “tanaffuslar hayotning maxsus ritmini yaratadi[1]. Bundan tashqari, muxbirlar, an'anaviy ravishda, o'zlari sharhlagan sport turlarini yaxshi ko'radilar va hatto dam kunlarida ham musobaqalarda qatnashish ularga zavq bag'ishlaydi. Sport jurnalisti kasbning tarkibiy qismlaridan biri bu – chet el xizmat safarlaridir. Muxbir dam olish uchun emas, ishlash uchun boradi. Sharhlovchilar nutqi davomida atrofdegilarni o'zlariga jalb qila olishi kerak. Bu sharhlovchilikning muhim xususiyatlaridan biridir.

**Sharhlovchilarning sifatlari quyidagilar:**

- Chiroyli nutq;
- Notiqlik mahorati;
- Samaradorlik;
- Keng dunyoqarash;

-Axborot oqimidan asosiy faktlarni ajratib ko'rsatish qobiliyati;

-Stressga chidamlilik.

### **Sharhlovchilarga qo'yiladigan talablar:**

-OAV sohasida oily ma'lumot;

-Jurnalistika, filologiya sohasidagi bilimlar;

-Ijtimoiy va iqtisodiy fanlarni bilish;

-OAVda ish tajribasi.

### **Sharhlovchilarning majburiyatlari:**

-Sport musobaqalari, Olimpiya o'yinlari va jang san'atlari haqida sharh berish;

-Ishtirokchilarni e'lon qilish;

-Asosiy sharhlarni sportchilar hayotidan qiziqarli faktlar va tinglovchilar uchun foydali bo'lgan sportga oid boshqa ma'lumotlar bilan to'ldirish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sharhlovchilar nutqi ularning kasbida juda katta ahamiyatga ega. Chunki ularning ish quroli so'zdir. So'zni aytish va gapirish orqali nutq hosil qilinadi. Sharhlovchilar nutqi aniq va ravon bo'lishni talab qiladi. Chunki sharhlovchilar nutqi o'yin, musobaqalarni tomoshabinga yetkazib berishda va unga estetik ta'sir o'tkazishda asosiy omil hisoblanadi.

Sharhlovchilar nutqi ham boshqa sohalar nutqiga o'xshab o'z xususiyatiga va so'zliklariga ega nutq hisoblanadi. Masalan:

-“Burchakdan zarba”;

-“Burchakdan to'p o'yinga kiritildi”;

-“Havfli vaziyat”;

-“Ofside”

-“Goll..”

-“O'ng qanotdan”

-“Chap qanotdan”

-“Penaltilar seriyasi”

-“Darvozobon mohirlik bilan to'pni qaytarishga muaffaq bo'ldi”

-“Jarima maydonchasi ichida”

-“O'yin tizginini qo'lga olsh biroz qiyin kechyapti (hakamga nisbatan);

-“Har qalay hushtagi borligiesiga tushdi” (hakamga nisbatan);

-“Sariq kartochka ko'rsatildi”;

-“Qizil kartochka bilan o'yindan chetlashtirildi”.

Bu kabi so'zlar futbol sharhlovchilar nutqida keng qo'llaniladi va o'ziga xoslikni ta'minlaydi. O'yinning tomoshabin uchun qiziq bo'lishi, estetik zavqini ta'minlash sharhlovchilar nutqi asosida kechadi. Futbolning o'zini tomosha qilish orqali

tomoshabin zavqlanmaydi, futbol tomosha qilgandek bo'lmaydi. Sharhlovchilar nutqi esa o'yinni bezaydi, qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Va tomoshabin uchun bir qancha tushunarsiz vaziyatlarni tushunib olishiga yordam beradi. Sharhlovchilar nutqi jarayonida ko'chma so'zlardan va hatto xalq maqollaridan ham foydalanishadi. Bu esa o'yinni kuzatayotgan tomoshabin uchun zavqlidir.

Xulosa qilib aytganda sharhlovchining o'yin kayfiyati bilan hamohang bo'lishi, ssenariy bilan mos ravishda emotsiya ko'rsatishi mutlaqo tabiiy va juda kerakli jarayon[2]. Xolis baho berish ilinjida doimiy ravishda muvozanat haiqda o'ylash, har ikki tarafning tengligi borasidagi qayg'urish sharni jonsiz, zerikarli qilib qo'yadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [www.kasbing.uz](http://www.kasbing.uz).Sport sharhlovchisi.
2. [www.kun.uz](http://www.kun.uz).Kichik Shumaxer bilan taqdiri o'xshash sharhlovchi.
3. Asfandiyorovich F. N. et al. BASICS OF PROGRAMMING FROM THE TEXTBOOK OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES CHAPTER PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE METHODOLOGY OF MULTIMEDIA //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 778-781.
4. Xasanovich, Prof L. M., et al. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX*, vol. 7, no. 03, 2021, pp. 167-171.
5. Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.
6. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITATION MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 273–278.